

TALABALARDA PROSOTSIAL XULQNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR

D.Sh. Norqo'ziyeva

Qo'qon DU Psixologiya kafedrası PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda prosotsial xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ijtimoiy ta'sir, empatiya, guruh normalariga muvofiqlik, ijtimoiy identifikatsiya va mustahkamlash nazariyalari asosida prosotsial xulqning paydo bo'lishi va rivojlanishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: prosotsial xulq, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, empatiya, ijtimoiy ta'sir, guruh dinamikasi, talaba psixologiyasi, altruizm, hamkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические механизмы формирования просоциального поведения у студентов как с теоретической, так и с практической точек зрения. В рамках исследования изучалось возникновение и развитие просоциального поведения на основе теорий социального влияния, эмпатии, конформизма групповых норм, социальной идентификации и подкрепления.

Ключевые слова: просоциальное поведение, социально-психологические механизмы, эмпатия, социальное влияние, групповая динамика, психология студентов, альтруизм, сотрудничество.

Abstract: This article analyzes the socio-psychological mechanisms of forming prosocial behavior in students from both theoretical and practical perspectives. Within the framework of the research, the emergence and development of prosocial behavior was studied based on theories of social influence, empathy, group norm conformity, social identification, and reinforcement.

Keywords: prosocial behavior, socio-psychological mechanisms, empathy, social influence, group dynamics, student psychology, altruism, cooperation.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim jarayoni nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni, balki shaxsning ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli, empatiyali va prosotsial yo'naltirilgan bo'lishini ham ta'minlashi lozim. Prosotsial xulq — bu boshqalarga yordam berish, hamkorlik qilish, ijtimoiy moslashishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar majmui bo'lib, u nafaqat shaxsning psixologik salomatligi, balki jamiyat barqarorligining ham asosini tashkil etadi.

Hozirgi zamonaviy yoshlarda o'ziga xos individuallikka ega tendentsiyalarning kuchayishi, raqobat muhitining hukmronligi va raqamli texnologiyalarning ta'siri ostida prosotsial xulq shakllanishi sezilarli darajada qiyinlashmoqda [7].

Tadqiqot olib borish jarayonida talabalarda prosotsial xulqni shakllantirishning qaysi ijtimoiy-psixologik mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega va ularni ta'lim jarayonida qanday faollashtirish mumkin kabi muammolar ijtimoiy-psixologik





jihtadan tahlil etilgan bo'lib, ushbu xulqqa xos fenomenlar ahamiyat kasb etadi hamda tadqiqotimiz davomida talabalar psixologik qurilmasida ushbu xulq xususiyatlarini shakllantirishga doir intravensiya imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Prosotsial xulq tushunchasi psixologiya faniga Eisenberg va Mussen tomonidan keng tatbiq etilgan bo'lib, u "boshqalarga foyda keltirish, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va hamkorlikka yo'naltirilgan ixtiyoriy harakatlar" sifatida ta'riflanadi [6]. Batson prosotsial xulqni motivatsion jihatdan tahlil qilgan va uning uch asosiy shakli — altruistik, egoistik va jamoaviylik motivlarga asoslanishini isbotlagan [2].

Eisenberg modeliga ko'ra, prosotsial xulq kognitiv, affektiv va motivatsion komponentlarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi. Kognitiv komponent perspektiv qabul qilishni, affektiv komponent empatik qo'zg'alishni, motivatsion komponent esa ijtimoiy mas'uliyat hissini o'z ichiga oladi. Ushbu uch komponentning uyg'un rivojlanishi prosotsial xulqning barqaror shakllanishini ta'minlaydi [6].

Prosotsial xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari bir nechta fundamental nazariyalarga asoslanadi:

Bandurani ta'kidlashicha, ijtimoiy o'rganish nazariyasi prosotsial xulqni kuzatish va taqlid orqali o'zlashtirishni tushuntiradi. Hamda salbiy ijtimoiy xulq namunalarini kuzatish, ularning ijtimoiy jihatdan sublimatsiyalash va o'z-o'zini samaradorlik hissining shakllanishi prosotsial xulqni o'rganishda asosiy mexanizm sifatida shakllanishi keltirib o'tilgan [3].

Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi guruhga mansublik hissining prosotsial xulqqa ta'sirini tushuntiradi. Talaba o'zini muayyan guruh (kursdoshlar, ilmiy jamoa kabi) a'zosi sifatida qanchalik chuqur his etsa, u shu guruh a'zolariga prosotsial xulq ko'rsatish ehtimoli shuncha ortadi [7].

Shuningdek, empatiya-altruizm gipotezasi empatik qo'zg'alishning bevosita altruistik motivatsiyaga olib kelishini isbotlaydi. Ushbu gipoteza bo'yicha empatiya prosotsial xulqning etakchi affektiv mexanizmi hisoblanadi va uning rivojlanishi oliy ta'lim muhitida maqsadli aralashuvlar orqali ta'minlanishi mumkinligi ta'kidlab o'tiladi [2].

Ijtimoiy norma nazariyasi guruh normalarining xulq regulyatsiyasidagi rolini ta'kidlaydi. Talabalar ta'lim muassasasida prosotsial xulq normasi hukmron bo'lgan muhitda bo'lsa, ular bu normaga muvofiq harakat qilishga intrinsik motivatsiya sezadilar [4].

Oliy ta'lim muhiti prosotsial xulqni shakllantirishda noyob imkoniyatlar yaratadi. Chickering va Reisser ning rivojlanish modeli bo'yicha tahlil etilganda, talabalar yoshi (17—25 yosh) shaxsning ijtimoiy identiteti, qadriyat tizimi va ma'naviy-axloqiy rivojlanishining intensiv davri hisoblanadi. Bu davrda ijtimoiy tajribalar va guruh dinamikasi ayniqsa katta ta'sir ko'rsatishi haqida fikr bildirib o'tadi [5].

Astinning ta'kidlashicha, talabaning akademik va ijtimoiy hayotga qanchalik chuqur jalb etilganini ta'limiy natijalarni, shu jumladan prosotsial xulqni ham, sezilarli darajada belgilaydi. Hamkorlikdagi o'qish, jamiyatga xizmat va tengdoshlar nazorati





kabi yondashuvlar prosotsial xulq shakllanishiga ahamiyatli ta'sir etishligi keltirib o'tilgan [1].

Demak, talabalarda prosotsial xulqni shakllantirish mexanizmlari sifatida o'zaro korrelyatsiyalangan fenomenlar sifatida kognitiv empatiya, hissiy empatiya, motivatsion yo'nalganlik, o'z-o'zini baholashda refleksivlik, guruh identifikatsiyasi, ta'lim muhitiga xos hamkorlik hamda ijtimoiy normalarni qabul qilish kabi psixologik mexanizmlar tashkil etishi asoslidir.

Tadqiqot davomida, prosotsial xulqni shakllantirishda bir nechta asosiy mexanizmlarning birgalikda va bir-birini to'ldiruvchi tarzda ishlashi muhimligi izohlanildi. Guruh identifikatsiyasining mediatsion roli ayniqsa muhimligi ahamiyat kasb etadi. Amaliy jihatdan bu ta'lim jarayonida guruhga mansublik hissini mustahkamlashning prosotsial xulqni shakllantirishda yangi strategiya ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Keltirilgan fikrlarga ko'ra, empatiya — xususan hissiy empatiya — prosotsial xulqning eng kuchli komponenti va etakchi mexanizmi bo'lib, o'quv jarayonida uning rivojlantirilishi strategik ahamiyat kasb etadi. Hamda ta'lim muhitining hamkorlikda faoliyat yuritish tamoili prosotsial xulq shakllanishida tizimli va barqaror ta'sir ko'rsatadi. Soglom bo'lmagan raqobat muhiti esa prosotsial moyillikni rivojlanishiga to'siq bo'lishi asoslangan. Ijtimoiy normalar va ijtimoiy tan olish mexanizmlari prosotsial xulqni barqarorlashtirish va kuchaytirish uchun muhim guruh ichidagi psixologik resurslar hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Astin, A. W. (1993). What matters in college: Four critical years revisited. Jossey-Bass.
2. Batson, C. D. (2011). Altruism in humans. Oxford University Press.
3. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Prentice Hall.
4. Cialdini, R. B., & Goldstein, N. J. (2004). Social influence: Compliance and conformity. Annual Review of Psychology, 55, 591—621.
5. Chickering, A. W., & Reisser, L. (1993). Education and identity (2nd ed.). Jossey-Bass.
6. Eisenberg, N. (2000). Emotion, regulation, and moral development. Annual Review of Psychology, 51, 665—697.
7. Penner, L. A., Dovidio, J. F., Piliavin, J. A., & Schroeder, D. A. (2005). Prosocial behavior: Multilevel perspectives. Annual Review of Psychology, 56, 365—392.
8. Tajfel, H., & Turner, J. C. (1979). An integrative theory of intergroup conflict. In W. G. Austin & S. Worchel (Eds.), The social psychology of intergroup relations (pp. 33—47). Brooks/Cole.

